

Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari ¹

2026- yil yanvar-iyul


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko‘rsatkichlari bo‘yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi

2026- yil yanvar-iyul oylarida dastlabki ma‘lumotlar bo‘yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo‘yicha o‘tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **24 685,3** mlrd so‘mni tashkil etdi. 2025- yil mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **116,7** % ni tashkil etib, uning hajmi esa 4 609,6 mlrd so‘mga o‘shishi qayd etildi.

Ma‘lumot uchun: 2025- yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar hajmi 20 075,7 mlrd so‘mni, o‘shish sur‘ati esa 110,8 % ni tashkil etgan.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘shish sur‘ati dinamikasi



2025- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan (9 864,3 ming so‘m) 2026- yilning mos davrida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 134,6 ming so‘mga yoki 15,4 % ga o‘shib, 11 998,9 ming so‘mni tashkil etgan.

2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 17 851,9 mlrd so‘mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining 72,3 % ini, jumladan, 49,8 % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

¹ 2025- yil yanvar-iyul oylari hajmi va 2026- yil yanvar-iyul oylari uchun ma‘lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo‘yicha o‘tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.



II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida rivojlanishi

Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari

2026- yil yanvar-iyul

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Qoraqalpog'iston Resp. ²	24 685,3	100	116,7
Nukus shahri	6 033,7	24,4	126,2
tumanlar:			
Amudaryo tumani	702,5	2,8	115,3
Beruniy tumani	664,1	2,7	115,5
Bo'zatov tumani	100,1	0,4	116,2
Qorao'zak tumani	239,9	1,0	117,9
Kegeyli tumani	304,9	1,2	117,3
Qo'ng'iro't tumani	1 379,8	5,6	113,5
Qonliko'l tumani	230,6	0,9	118,1
Mo'ynoq tumani	324,7	1,3	119,5
Nukus tumani	333,2	1,3	117,6
Taxiatosh tumani	366,8	1,5	121,3
Taxtak'o'pir tumani	208,0	0,8	116,0
To'rtko'l tumani	988,3	4,0	120,3
Xo'jayli tumani	614,1	2,5	115,2
Chimboy tumani	423,4	1,7	115,1
Shumanoy tumani	240,4	1,0	116,8
Ellikqal'a tumani	564,1	2,3	115,6

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining shahar va tumanlar kesimidagi hajmi](#)

Nukus shahrining yuqori ulushi (24,4 %) uning poytaxt maqomi bilan izohlanadi, u Qoraqalpog'istonning eng yirik shahridir. Poytaxtda davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar, banklar va yirik kompaniyalar jamlangan bo'lib, tabiiyki, aholi zichligi transport, savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash, hordiq chiqarish kabilarga bo'lgan talabni oshiradi. Nukus rivojlangan transport tizimi, savdo va biznes markazlari hamda boshqa yirik obyektlarga ega shahar, bu esa xizmatlar sohasining tobora rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

² Shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda.



III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida yashash va ovqatlanish xizmatlari 13,1 % ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga hissassi 4,3 bandni tashkil etdi), transport xizmatlari 29,4 % ga (o'sishiga hissassi 3,6 band), savdo xizmatlari 14,7 % ga (o'sishiga qo'shgan hissassi 3,4 band), moliyaviy xizmatlar 22,5 % ga (o'sishiga hissassi 2,5 band), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 18,1 % ga (o'sishiga hissassi 0,7 band) va ta'lim sohasidagi xizmatlar 15,5 % ga (o'sishiga hissassi 0,5 band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari 2026- yil (yanvar-iyul)

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2025- y.	2026- y.	
Xizmatlar – jami	20 075,7	24 685,3	116,7
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	741,5	932,1	118,1
moliyaviy xizmatlar	2273,9	2880,6	122,5
transport xizmatlari	2482,4	3326,1	129,4
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1513,9	1900,6	109,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	6543,4	7898,2	113,1
savdo xizmatlari	4670,9	5587,7	114,7
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	295,2	337,2	112,2
ta'lim sohasidagi xizmatlar	661,3	771,7	115,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	343,9	399,3	109,6
ijara xizmatlari	218,2	294,3	126,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	447,6	530,3	114,0
shaxsiy xizmatlar	523,9	649,6	113,0
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	167,9	230,6	122,3
boshqa xizmatlar	705,7	847,6	105,8


Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2026- yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari 32,0 %, savdo xizmatlari 22,6 %, transport xizmatlari 13,5 %, moliyaviy xizmatlar 11,7 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 3,8 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa 3,1 % ulushini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari 32,6 foiz, savdo xizmatlari 23,3 foiz, transport xizmatlari 12,4 foiz, moliyaviy xizmatlar 11,3 foiz, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 3,7 foiz, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa 3,3 foiz ulushni tashkil etgan.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi
2026- yil yanvar-iyul, %



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining o'sishiga telekommunikatsiya xizmatlarining o'sishi ta'sir ko'rsatdi. 2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 64,4 foizni tashkil etdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan esa 5,8 foizga o'sgan.

2026- yilning yanvar-iyul oylarida savdo xizmatlari tarkibidagi chakana savdoning o'sishi kuzatildi. 2025- yilning mos davriga nisbatan hajmi 523,0 mlrd so'mga yoki 17,4 foizga o'sishi kuzatilgan.

Savdo xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar sohasida kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish xizmatlari (114,8 %), kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash xizmatlari (114,6 %) xizmatlarida yuqori o'sish sur'ati qayd etildi. Mebellar va uy-ro'zg'or anjomlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 30,8 foizini tashkil etadi.

Maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari shu sohani rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Qoraqalpog'istonda yashash va ovqatlanish xizmatlarining rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 98,9 % ni tashkil etdi. 2026- yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat va ichimliklar ilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 113,0 % ni tashkil etdi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirma va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot (ro'yxat bo'yicha);



b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlar bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlari to'lovlar yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarida sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlar bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

